

INGLIZ TILI DARSLARIDA BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING LINGVISTIK KOMPETENSIYASINI INTEGRATIV TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

Haydarova Maftuna Murodilla qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

***Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish masalalari o‘rganilgan.*

***Kalit so‘zlar:** lingvistik kompetensiya, nutq faoliyati, til materiallari, integrativ texnologiyalar, fonetika, leksika, grammatika.*

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются вопросы развития языковой компетентности учащихся младших классов на уроках английского языка.*

***Ключевые слова:** языковая компетентность, речевая деятельность, языковой материал, интегративные технологии, фонетика, лексика, грамматика.*

***Abstract.** This article discusses the development of linguistic competence of primary school students in English lessons.*

***Key words :** Key words: linguistic competence, speech activity, language material, integrative technologies, phonetics, vocabulary, grammar.*

KIRISH

So‘nggi o‘n yil ichida mamlakatimizdagi yoshlarning chet tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortdi. Shu vaqt oralig‘ida yurtimizda yoshlarni har jihatdan bilimli va mustaqil fikrli kishilar qilib tarbiyalash yuzasidan bir qator

islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan 2012-yil 10-dekabrda qabul qilingan “Chet tillarni o‘rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1875-sonli qarori. Ushbu qarorga muvofiq 2013-2014-o‘quv yilidan boshlab Respublikamizning barcha hududlarida chet tillarni o‘rganish umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining birinchi sinfidan amalga oshirilishi aniq belgilab qo‘yildi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab yurtimizda barcha sohalarga shu jumladan, ta‘lim sohasiga ham alohida e‘tibor qaratdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limining Davlat ta‘lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sonli farmonlari sohaga qaratilgan e‘tiborning yorqin misolidir. Joriy etilgan ushbu qarorlar hamda farmonlar zamirida chet tillarda erkin so‘zlasha oladigan, mustaqil fikrlaydigan, intellektual salohiyatga, chuqur bilim va zamonaviy dunyoqarashga ega, vatanimiz taqdiriga befarq bo‘lmagan hamda yurtimiz kelajagi gullab-yashnashi uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir har tomonlama raqobatbardosh bo‘lgan yosh avlodni tayyorlashdek ulkan vazifani amalga oshirish masalasi yotadi. Bugungi kunda tom ma‘noda ushbu ulkan vazifalar yuqori darajada amalga oshirilmoqda va bugun Yangi O‘zbekiston deya e‘tirof etilgan diyorda nafaqat ta‘lim tizimi balki, ushbu yurt hayotining barcha sohalari chuqur islohotlar maydoniga aylanib ulgurgan. Bu jarayonlar jannatmakon yurtda farovon hayot kechirayotgan barchani birdek quvontiradi.

Boshlang‘ich ta‘lim umumiy o‘rta ta‘limning poydevori hisoblanadi. Shu bois mamlakatimizda boshlang‘ich ta‘lim sifatini oshirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Endilikda o‘qituvchilardan dars mashg‘ulotlarini an‘anaviy usullardan ko‘ra ilg‘or

pedagogik texnologiyalar, integrativ yondashuvlar hamda o'qitishning interfaol usullaridan keng foydalangan holda olib borish talab qilinmoqda. Shuningdek, umumiy o'rta ta'limda chet tillarni jumladan, ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarning til o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi va layoqati kabi individual jihatlarini; tafakkur, xotira, diqqat kabi yoshga oid psixologik xususiyatlarini; til tajribasi va til ta'lim sharoitini inobatga olgan holda sifat hamda samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Respublikamizda ingliz tilini o'qitish muammolari J.Jalilov, G.Mahkamova, T.Sattarov, O'.Xoshimov, L.T.Axmedova, M.Gulyamova kabi yetuk olimlarning ilmiy ishlarida yoritilgan. Jumladan chet tillarini o'qitishda integratsiyalashgan ta'limni joriy etish bo'yicha integrativ yondashuvning ilmiy metodik asoslari N.Xurboyev, V.Makuhiyana, N.J.Isakovalarning tadqiqot ishlari mavjud. Integrativ yondashuvni boshlang'ich ta'lim sohasiga tadbiq etish yuzasidan R.A.Mavlonova, N.H.Rahmanqulovalarning ayrim maqolalar va metodik qo'llanmalari e'lon qilingan. B.S. Abdullayeva, S.A. Abduraimov, U.SH. Begimqulov, N.A.Muslimov kabi olimlar tomonidan ta'lim jarayonidagi integratsiyaning psixologik-pedagogik, metodik muammolari va ularning yechimlari o'rganilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Umumiy o'rta ta'limda chet til o'qitish masalalari bo'yicha bir nechta ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitish jarayonida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini integrativ texnologiyalar orqali rivojlantirish bilan bog'liq ilmiy tadqiqot ishini taqazo etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tili darslarida lingvistik kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida quyidagi vazifalar belgilab olindi:

-Ingliz tili o'qitishda boshlang'ich sinf o'quvchilarining psixologik xususiyatlari, til o'rganish usul va strategiyalarini hisobga olish;

- Ingliz til o'qitish mazmuni (nutq mavzuyi, nutq malakalari va til material) tahlil qilish;

- Ingliz tilini A1 darajada o'rgatishda yuzaga keladigan tillararo interferensiya darajasini aniqlab, xatolarning oldini olish;

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tili darslarida lingvistik kompetensiyalarini (fonetika, leksika, grammatika) shakllanganlik darajasini aniqlash;

- Dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda integrativ texnologiyalardan foydalanish;

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ingliz tili darslarida integrativ texnologiyalardan foydalangan holda lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish, o'tkazish, tadqiqot natijalari bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Ma'lumki, hozirgi kunda pedagogika fanida didaktik prinsiplar tizimi ishlab chiqilgan. Ular :

- Ta'lim-tarbiya birligi;
- O'quv jarayonining ilmiyligi;
- Nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi;
- O'quv jarayonining ko'rgazmaliligi
- Bilimlarning mustahkamligi kabilar.

O'qitishning integrative texnologiyalari ham ushbu prinsiplarga tayanilgan holda loyihalashtiriladi va qo'llaniladi. Shuningdek o'qitishning integrativ texnologiyalari o'zining xususiy prinsiplariga ham ega. Ular o'zida turli konsepsiyalar, yondashuvlar, metodlarni mujassamlashtiradi. Shu tariqa integrativ xarakterdagi texnologiyalar quyidagi prinsiplarga tayanadi: modullilik, individuallashtirish, moslashuvchanlik, hamkorlik kabilardir.

Ushbu prinsiplarga asoslangan integrativ texnologiyalar o'quvchilarda lingvistik kompetensiyasi rivojlantirish imkonini beradi.

TAKLIF VA TAVSIYALAR

Har qanday chet tili tabiiy sharoitda muvaffaqiyatli o'zlashtiriladi, shu jumladan, ingliz tili ham. Shu sababdan ingliz tili darslarida o'quv jarayonini tabiiy muhitga yaqinlashtirish, hamda dars mashg'ulotlarida tabiiy nutq vaziyatlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni:

- Ingliz tili o'qitishda o'quvchilarning ichki turtki (motivatsiya) sini oshirishga xizmat qiladigan rolli va didaktik o'yinlar tashkil etish;
- Dars mashg'ulotlarida o'quvchilarning yoshiga mos ravishda jismoniy harakatlarini rag'batlantirish;
- Sinfzona interyerini o'quvchilar diqqatini jalb etadigan hamda ularda ingliz tili faniga qiziqish uyg'otadigan devoriy ko'rgazmalar, qiziqarli kitoblar, o'quvchilar tomonidan yaratilgan portfoliolar bilan jozibador qilish orqali u yerda ingliz tilida muloqot qilish muhitini yaratish;
- Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, ertaklar sahnalashtirish orqali o'quvchilarda o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlashdan zavqlanish tuyg'ularini barqarorlashtirish.

XULOSA

Ushbu ilmiy tadqiqot jarayonini olib borish natijasida quyidagi maqsadlarga erishildi:

1. Ingliz tili darslarini lingvistik kompetensiyalar egallanishiga mo'ljallangan integrativ texnologiyalar asosida tashkil etish;
2. O'quvchilar bilimlarini ingliz tilida erkin namoyon qilish imkoniyatini yaratish;
3. O'quvchilarning individual imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv materiallarini taqdim etish;
4. O'quvchilarni qadriyatlarimizga hurmat hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi:chet tillar oliy o‘quv yurtlari(fakultetlari) talabalari uchun darslik.- T.: O‘qituvchi, 2012-B.82-83.
2. Tajibayev G.Sh. Boshlang‘ich sinflarda ingliz tili o‘qitish. Namangan-2019-B.13-14
3. Kadirova Y.B. Texnologiyalarni ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash// Innovations in technology and science education.-2023-B. 541-548.
4. Wendy A. Scott and Lisbeth H. Ytreberg. Teaching English to Children.- London.P-4-8.
5. Diane Larsen-Freeman. Techniques and Principles in Language Teaching. Oxford. Second edition. P-121-125.